

O‘ZBEK MILLIY TILI VA LINGVOMADANIYATI TALQINI INTERPRETATION OF THE UZBEK NATIONAL LANGUAGE AND LINGUISTIC CULTURE

Jo‘rayev Nabi Narziyevich

TerDU o‘qituvchisi

nabijurayev1958@rambler.ru

jurayevnabi@tersu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek milliy tilimizning uzoq tarixiy ildizlari, bugungi zamonaviy o‘zbek milliy tilimizning o‘ziga yarasha va havas qiladigan darajadagi go‘yat go‘zalligi, maftunkorligi hamda latifligi, jozibasi haqida fikr yuritilgan. O‘zbek milliy tilimiz asrlar osha qanchalar kamsitishlarning to‘fonlariga, zarbalariga duchor bo‘lgan bo‘lsa-da, yo‘qolmaganligi, aksincha, bu kurashlarda yana ham chiniqib, boyib, mazmunan kengayib bizning davrimizgacha yetib kelganligi to‘g‘risidagi qarashlar bayon etilgan. Shuning bilan birga o‘zbek xalqimiz tarixda o‘zbek tilini yozish uchun juda ko‘plab alifbolardan foydalanganligi hamda lotin yozuvining joriy etilishi masalalariga bag‘ishlangan munosabatlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy tilimiz, tilimizning go‘zalligi, ilmiy tadqiqot, til millatning madaniyati, yozuv madaniyati, yozma yodgorliklar, lotin alifbosi.

ABSTRACT

This article reflects on the long historical roots of our Uzbek national language, the unique and enviable beauty, charm and charm of our modern Uzbek national language. Views that our Uzbek national language has been subjected to floods and blows of discrimination over the centuries, but it has not disappeared, on the contrary, it has been strengthened, enriched and expanded in content until our time. stated. At the same time, Uzbek people have used many alphabets to write the Uzbek language in history, as well as relations regarding the introduction of the Latin script.

Key words: our uzbek national language, the beauty of our language, scientific research, language and culture of the nation, writing culture, written monuments, latin alphabet.

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражены давние исторические корни нашего узбекского национального языка, неповторимая и завидная красота, обаяние и обаяние

нашего современного узбекского национального языка. Высказывались мнения о том, что наш узбекский национальный язык на протяжении столетий подвергался наводнениям и ударам дискриминации, но не исчез, а наоборот, укрепился, обогатился и расширился по содержанию до нашего времени. В то же время узбеки использовали множество алфавитов для письма на узбекском языке в истории, а также отношения, связанные с введением латиницы.

Ключевые слова: наш узбекский национальный язык, красота нашего языка, научные исследования, язык и культура нации, культура письма, письменные памятники, латиница.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqclariga quloq tutsin” [Mirziyoyev, 2019], - degan so‘zlari o‘zbek milliy tilimizning o‘tmish tarixi, uning juda ko‘p asrluk kechmishi va boy tarixiy merosi to‘g‘risidagi fikrlarimizga yanada mazmun va ma’no qo‘shadi.

O‘zbek milliy tilimizning o‘ziga yarasha va havas qiladigan darajadagi g‘oyat go‘zalligi, maftunkorligi hamda latifligi, ayniqsa, mazmundor so‘zlarimizning jozibadorligi har bir kishida katta taassurot uyg‘otadi, sehrli va hayratlanarli nutqimiz boshqa til egalarini o‘ziga rom qiladi.

O‘zbek milliy tilimiz asrlar osha qanchalar kamsitishlarning to‘fonlariga, zarbalariga duchor bo‘lgan bo‘lsa-da, yo‘qolmadi. Aksincha, bu kurashlarda yana ham chiniqib, boyib, mazmunan kengayib bizning davrimizgacha yetib keldi. Ayniqsa, O‘zbekistonimizning mustaqilligi arafasida o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomining berilishi o‘zbek tilining dunyo miqyosidagi obro‘si va e’tiborini oshishiga sabab bo‘ldi. “Bu voqea mustaqil O‘zbekistonimizning o‘z taraqqiyot yo‘lini boshlab olishidagi ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Til millatning madaniyati va ma’naviyati, qadim tarixi hamda o‘sha millatga xos bo‘lgan urf-odatlar majmuyi ifodasi” [Mahmudov] dir. Avlodlarimiz, ota-bobolarimiz milliy o‘zbek tilimizda o‘zlarining uzoq o‘tmishi va boy madaniy meroslarini yaratganlar. Bu boy madaniy meroslar bizning bugungi zamonaviy davrimizga asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tib, boyib, sayqallanib hamda mazmunan hayratlanarli darajada rivojlanib yetib kelgan.

O‘zbek milliy lingvomadaniyati o‘zining tarixiyligi va zamonaviyligi bilan bugungi davrimiz uchun ilmiy tadqiqot, o‘rganish va kashfiyot obyektiga aylanib bormoqda. Bu masaladagi fikr-mulohazalarimiz bizni uzoq tarix, uzoq o‘tmish va

Oʻrta asrlar tarixi, Oʻrta asrlar lingvomadaniyati tomon beixtiyor yetaklaydi, unda oʻzbek xalqining tarixi va oʻtmishi borligi maʼlum boʻladi.

Oʻrta asrlardayoq Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit-turk” asari orqali turkiy xalqlarning boy madaniy va boy lingvomadaniy merosini dunyoga tanitishga ulgurdi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu borada maʼnaviy, madaniy jasorat hamda fidoyilik koʻrsata olgan buyuk arbob - Mahmud Qoshgʻariy va uning “Devonu lugʻotit-turk” asari bilan faxrlanamiz.

“Oʻzbeklar Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan boʻlib, oʻzining uzoq asrli yozuv madaniyati, boy yozma yodgorliklari, yozma adabiy til va matn tuzish anʼanalari, etnografiyasi, milliy udumlariga ega. Xalqning oti – oʻzbek, uning tilini esa oʻzbek tili deymiz. Oʻzbek tili turkiy tillarga mansub. Turkiy tillar deganda oʻzbek tili qolipidagi, har qalay, oʻzbeklar tinglaganda uncha-muncha tushunadigan tillar koʻzda tutiladi” [Sodiqov, 2021:11].

Bundan ming yillar oldin Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu-lugʻotit turk” asari muqaddimalarida yozilgan fikrlar yana ham toʻla-toʻkis va aniqroq maʼlumot beradi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli soʻzlar, sajarlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim...Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qoʻllanilib kelingan sheʼrlaridan, shodlik va motam kunlarida qoʻllaniladigan hikmatli soʻzlaridan, maqollaridan keltirdim” [Iqbol Mirzo, 2018]. Yuqoridagi fikrlarni yana ham aniqroq maʼlumotlar bilan boyitadigan boʻlsak, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” nomli asarida ham oʻzining tugʻilib oʻsgan yurti Andijon haqida yozib, “...eli turkdir, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yoʻqdir. Elining lafzi qalam bila rosttur...Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti boʻvujudkim, Hirida nashʼu namo topiptur, bu til biladur” [Iqbol Mirzo, 2018], - degan edi. Shunga asosan biz oʻzbek milliy tilshunosligi hamda lingvomadaniyatining namoyon boʻlishi tarixan uzoqlarga, uzoq asrlarga yuzlanadi, oʻzida tarixiy milliy madaniyat va milliy lingvomadaniyatning haqiqatini aks ettiradi deya olamiz.. Asosli ravishda aytishimiz mumkinki, garchi lingvomadaniyat tilshunoslikning yangi sohasi, yangi fani boʻlsa-da, u Oʻrta asrlar, balki undan ham oldingi davrlar tilshunosligi va lingvomadaniyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga murojaat qilishga chorlayveradi, undayveradi.

“Bugun hech bir mubolagʻasiz aytish mumkin va buni men qayd etmoqchiman. Oʻrta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali toʻliq oʻrganilmagan va oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda” [Karimov, 2014], - degan edi mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Tilshunos olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz va kashfiyotchilarimiz izlanishlarni yangi bosqichga chiqarish uchun intilayotganlari sari yangi-yangi manbalar, milliy lingvomadaniy sohadagi oʻtmish tarix maʼlumotlari kashf qilinaveradi.

Takroran aytish mumkinki, tarixiylik va zamonaviylik, ulugvorlik va navqironlikni asrlar osha o'zida namoyon etib, ilmiy jihatdan hamisha yuksalib kelayotgan o'zbek milliy tilimiz hamda o'zbek milliy madaniyatimiz mazmuni, madaniy va lingvomadaniy tushunchalarning ildizi asosan O'rta asrlarga va aytishimiz mumkinki, undan ham oldingi davrlarga borib taqaladi. Bu boradagi fikr va g'oyalarimizni izchil tahlil qilishimizga o'zbek adabiy tili tarixi bo'yicha qilingan davriy tasnif [Sodiqov, 2021:14-15] yordam beradi. Agar lingvomadaniyat va lingvomadaniy tushunchalar masalasiga chuqurroq e'tibor bilan murojnat qiladigan bo'lsak, avvalo bu soha ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyomizda kechgan lingvomadaniy jarayonlar [Sodiqov, 2021] tahliliga bizni jalb qiladi. Qadimgi turkiy xalqlarning turmush tarzi, qadimgi turkiy xalqlarda, ularning badiiy jihatdan bebaho asarlarida lingvomadaniy tushunchalarning ifodalanishi, bu bilan xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmush tarzini aks ettirgan tushunchalar bilan bog'liqligi, Buyuk ipak yo'li hamda umuman Markaziy Osiyoda kechgan lingvomadaniy jarayonlar [Sodiqov, 2021], til vaziyatlariga murojnat qilishimizning asosi bo'ladi. Bu masala filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovning izlanish, tadqiqot va kashfiyotlarida mukammal ma'lumotlar bilan to'ldirilganini aytishimiz va e'tirof etishimiz lozim bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining tarixi miloddan oldingi davrlardan to X asrgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga olishi, bu davr tili – “qadimgi turkiy til” deb yuritilishi, qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari va durdonalari, O'rxun-Enasoy yodgorliklarining aynan shu tilda yaratilganligi, XI-XIV asrlarda amalda bo'lgan tilning “eski turkiy til” deb yuritilishi, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu-lug'otit turk”, Yusuf xos Xojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi asarlarining shu tilda yaratilganligi ma'lumotlarimizning asosi hisoblanadi.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo'llanilgan til “eski o'zbek adabiy tili” deb yuritilgan. Atoy, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, A.Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari ushbu tilda yaratilgan. Biz e'tibor bilan fikr yuritayotgan til XIX asrning yarmidan boshlab “hozirgi o'zbek adabiy tili” nomi bilan yuritigan.

O'zbek milliy tilimizning boyligi, sehri va jozibaliligi to'g'risidagi fikrlarimizni buyuk bobokalonimiz, o'zbek tili va o'zbek adabiy tilining asoschisi buyuk Alisher Navoiy faoliyati, ijodi va nomi bilan bog'liq ma'lumotlar izchil ta'minlashga xizmat qiladi. Alisher Navoiy eski o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan ijodiy foydalangan holda bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi, mukammal o'rganuvchi “Muhokamat-ul lug'tayn” nomli yirik asarini dunyoga tortiq qilganligi diqqatga sazovordir.

Alisher Navoiy tilning kuchi va qudrati to'g'risida fikr yuritib, "Til insonni hayvondan ajratuvchi "gavhari sharif"dir deydi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, berur xabar jonga jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

O'zbek xalqimiz tarixda o'zbek tilini yozish uchun juda ko'plab alifbolardan foydalanganlar. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlaridan biri-Oromiy yozuvi hisoblanadi. Bu yozuv finikiya yozuvi asosida paydo bo'lgan. Keyinchalik so'g'd, Avesto, Xorazm, uyg'ur, arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvlaridan ham foydalanilib, o'zbek xalqining o'tmishi, boy tarixiy merosi, tili hamda madaniyatini aks ettirgan asarlar ana shu yozularda yozilgan. O'zbekistonimizda 1929 – yilgacha arab yozuvidan foydalanigan. 1929 – yilning o'rtalaridan bu yozuvga nisbatan keng hujum boshlangan. Arab yozuviga soxtalik bilan qoloqligimiz, savodsizligimiz va dindorligimizning sababchisi deb ayb qo'yilgan hamda e'lon qilingan.

1929 – yildan lotin yozuvi asosidagi alifboga o'tilishi o'zbek xalqimizning asrlar davomida yaratilgan va chop etilgan ilmiy, badiiy hamda falsafiy adabiyotlaridan mahrum etdi. 1940 – yilda shaxsan Stalinning buyrug'i bilan majburan kirill yozuvi asosidagi alifboga o'tilishi esa o'zbek xalqini shu yillar oralig'ida yaratilgan ilmiy, adabiy, pedagogik o'quv adabiyotlaridan uzoqlashtirdi. Shunday qilib, XX asrdan boshlab O'zbekiston hududida to'rt marta yozuv islohoti amalga oshirilib, jami beshta alifbodan foydalanildi.

1940-yildan 1992-yilgacha 50000 nomda 50000000 nusxada kitoblar chop etilganini e'tiborga oladigan bo'lsak, yana lotin alifbosiga o'tilishida qanchadan qancha adabiyotlardan yiroqlashishimiz ayon bo'lardi. Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari lotin yozuvidan foydalanadilar. Dunyodagi eng zamonaviy texnikalar, tabiiy fanlar, ijtimoiy tadqiqotlar va kashfiyotlar haqidagi adabiyotlar shu yozuv asosida yoritiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga o'tish uchun O'zbekistonimizda lotin alifbosining joriy etilishi maqsadga muvofiq ish sifatida qabul qilinadi. Biroq "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi" ning joriy etilishi yo'liga ilk tashlangan qadamga o'ttiz yil to'layotgan bo'lsa-da, hanuzgacha o'zining yechimini kutib turgan katta-katta muammolar borligi hammamizni bezovta qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. SH.Mirziyoyev. "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi". Toshkent, 2019 yil, 21oktabr.
2. Nizomiddin Mahmudov."O'zbek tili – xalq ruhining ko'zgusi". Ziyoz.uz.

3. Q.Sodiqov. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. Toshkent, “Akademnashr”. 2021. – B 11.
4. Iqbol Mirzo. “Devonu lug‘otit turk” asarining xalqaro miqyosda o‘rganilishi. “Sharq yulduzi”jurnali, 2018 yil, 8-son
5. I.Karimov. “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferentsiyada so‘zlagan nutqi”. Samarqand, 2014.
6. Q.Sodiqov. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning shakllanishi va qadimgi tilning manbalari. Toshkent, “Akademnashr”. 2021-592 b.